

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, O.Raxmatov</b> Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
<b>B.Shermuhammadov, D.Namozova</b> Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
<b>B.Shermuhammadov, B.Baratov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari .....	18
<b>D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova</b> Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
<b>B.Qurbonova</b> Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish .....	25
<b>I.Siddiqov</b> Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	29
<b>A.Xo'jayev</b> Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish .....	33
<b>X.Qodirov</b> Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari .....	38
<b>B.Baydjanov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi .....	42
<b>A.Turaxanov</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	49
<b>R.Madaliyev</b> Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
<b>X.Yulbarsova</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	56
<b>A.Soyibnazarov</b> Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
<b>S.Kamchiyev</b> Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
<b>N.Mamatqulova</b> Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari .....	71
<b>S.Sulaymanova</b> Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
<b>M.Aripjanova</b> Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili .....	80
<b>D.Yo'ldosheva</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari .....	83
<b>N.Dusimbetova</b> Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
<b>T.Turgunbayev</b> Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari .....	92
<b>N.Yuldasheva</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar .....	95

**BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH  
DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA****РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ СОЦИОЛОГОВ КАК  
АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА****DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN FUTURE SOCIOLOGISTS AS A  
CURRENT PEDAGOGICAL PROBLEM****Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna**

– Farg'ona davlat universiteti, sotsiologiya kafedrası v.b, dotsenti.

**Annotatsiya**

Maqolada kasbiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya tushunchalari mohiyati va mazmuni sotsiologik va pedagogik jihatdan o'rganilgan. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilganligi me'yoriy hujjatlar tahlili asosida o'rganilgan. Shuningdek bo'lajak mutaxassislarida ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi, jamiyatning ijtimoiy jarayonlari tahlili nazariy va metodologik yondashuvlar yordamida izohlangan. Bo'lajak sotsiologning yetuk mutaxassis sifatidagi ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam beradigan muhim omil ekanligi to'g'risida xulosalar berilgan.

**Аннотация**

В статье социологически и педагогически исследуются сущность и содержание понятий профессиональной и социальной компетентности. На основе анализа нормативных документов изучено создание организационно-правовых основ организации и совершенствования образовательных процессов в высших учебных заведениях нашей страны. Также поясняется, что развитие социальной компетентности у будущих специалистов является актуальным вопросом сегодняшнего дня, а анализ социальных процессов общества разъясняется с использованием теоретико-методологических подходов. Сделаны выводы о том, что развитие социальной компетентности будущего социолога как зрелого специалиста является важным фактором, помогающим молодежи найти свое место в трудовой деятельности, получить качественное образование, сформировать межличностные социокультурные коммуникации.

**Abstract**

In the article, the essence and content of the concepts of professional competence and social competence are studied sociologically and pedagogically. The creation of organizational and legal bases for the organization and improvement of educational processes in higher education institutions in our country was studied based on the analysis of regulatory documents. It is also explained that the development of social competence in future specialists is an urgent issue of today, and the analysis of social processes of society is explained using theoretical and methodological approaches. Conclusions are given that the development of the social competence of the future sociologist as a mature specialist is an important factor that helps young people to find their place in labor activities, to receive quality education, and to form interpersonal social and cultural communication.

**Kalit so'zlar:** kompetentlilik, kompetentsiya, barkamol inson, ijtimoiy kompetentsiya, asosiy kompetensiyalar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy munosabatlar.

**Ключевые слова:** компетентность, компетенция, всесторонне развитая личность, социальная компетентность, базовые компетенции, социализация, социальные отношения

**Key words:** competence, well-rounded person, social competence, basic competences, socialization, social relations.

**KIRISH**

Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlik sifatini, ularda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtira olish, shuningdek ta'lim-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tatbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali rivojlantirish muammosi bugungi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarda, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va

imkoniyatlarini safarbar etamiz” [4, 146 b], degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi.

Bo'lg'usi mutaxassisning ilmiy, innovatsion salohiyatga ega bo'lishi, shiddat bilan rivojlanayotgan sotsial o'zgarishlarga, sharoitlarga nisbatan moslashuvchan va sezgir bo'lishini zamonning o'zi talab qilmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari bo'lajak sotsiologlarning ijtimoiy-kasbiy kompetentligini zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish, ta'limni tubdan isloh qilish hamda mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko'tarishning muhim sharti hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga, xususan, sotsiologlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-sonli “Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, inson salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, aholining farovonlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida muayyan sohadagi vaziyatni sifat jihatidan o'zgartirish hamda ilg'or xorijiy va mahalliy nazariy-metodologik vositalardan foydalanish asosida uni rivojlantirish vazifalarini davom ettirish xususida sotsiologik so'rovlar o'tkazishning sifat jihatidan yangi va zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirish [1] masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Farmonda muntazam ravishda jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga nisbatan jamoatchilik fikrini o'rganib borish maqsadida, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o'rganish markazini faoliyatini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyotlarini markazda tashkil etishni shakllantirish vazifalari qo'yildi. Zero mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro va siyosiy jarayonlarda jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish hamda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda sotsiologik bilimlar muhim sanaladi. Bu ham tadqiqotimizning dolzarbligi bilan bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarorida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar qatorida:

- “har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatishi;
- o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarini keng joriy qilish;
- o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, ta'lim jarayoniga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish” [2] orqali bo'lajak sotsiologlarning ijtimoiy-kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalardan keng foydalanishni taqozo qiladi.

2018-yil 5-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-3775-sonli Qarorida esa “mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta'lim muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash” [3] kabi muhim vazifalar belgilab berilishi bu jarayonda bevosita ishtirok etadigan bo'lg'usi mutaxassislarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini dolzarbligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni ham O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni

modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Farmonda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlanib, unga ko'ra, bo'lajak sotsiologlarni ijtimoiy-kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi bilan bog'liq qator muhim yo'nalishlar belgilab berildi. Jumladan:

– “davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlariga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

– yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

– talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo'lida birlashtirish maqsadida ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e'tiborga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash” [1] va h.k.lar belgilab qo'yilgan.

Shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida kasbiy ta'lim faoliyatining barcha talablariga mos keluvchi kompetensiyaviy yondashuv, yangi avlodni har tomonlama shakllantirishda salohiyatli, mahoratli mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning mohiyati ta'limni modernizatsiyalashda (ta'lim va tarbiyaning o'zaro birgalikdagi harakati), uning sifat jihatidan o'zgarishi, ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida yangi insoniy qadriyatlar tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Yaqin va O'rta Sharqning buyuk mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Yusuf al-Kindiy, Nosir Xusrav, Abu Nasr Forobiy, Umar Hayyom, Muhammad ibn Muso Xorazmiy va boshqa) ko'plab ma'rifatparvar olimlar o'sib kelayotgan avlodga ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchining roli, ayniqsa tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan munosabatining, muloqotining ahamiyati, fanlararo integratsiyaning muhimligini ta'kidlaganlar. Qomusiy olimlar tomonidan insoniy qadriyatlarining muhimligi, muloqotning mohiyati, metodlari, shakllari, vositalari va prinsiplari ishlab chiqilgan bo'lib, ular hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xususan, “yaxshilik, odob, insoniylik, xushmuomalalik masalalari Imom Buxoriyning 4 jildlik “Al jome' as-sahih” asarining bir jildida odob, axloq, muomala, muloqot haqidagi hadislarni jam etganlar. Ushbu kitobda iymonning mukammal bo'lmog'ining uch sharti ko'rsatiladi: to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq; kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq; kishi o'z ustida ishlamoq va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog'i kabilar. Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor, – deb iymon belgilari sanab o'tiladiki, bularning har biri inson ma'naviy qiyofasining mukammallashuviga ta'sir etuvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat:

“Qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir”, “O'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz mo'min bo'la olmaysiz”.

Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;

- barchaga salom bermoq;

- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq”[5, 23 b.].

Demak, buyuk allomamiz nafaqat insonning chiroyli xulqiga, ma'naviy-axloqiy munosabatlariga, shuningdek, uning faoliyat namunalari ham katta e'tibor qaratgan. Bu jihatlar bo'lajak sotsiologning ijtimoiy kompetensiyalarining ajralmas qismidir.

“Barkamol inson”ni shakllantirish g'oyasining rivojiga buyuk vatandoshlarimiz, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino va Hazrat Alisher Navoiy katta hissa qo'shgan. Ularning pedagogik qarashlarini integral pedagogika kontseptsiyasi nuqtayi nazaridan o'rgana borib ishonch hosil qilish mumkinki, ular ma'naviy-axloqiy, aqliy, estetik, musiqa va jismoniy ta'limning o'zaro aloqalariga asoslanib mukammal insonni shakllantirishning yetakchi yo'nalishini kashf etishga harakat qilganlar. Axloqiy ta'lim mazmuniga ular yoshlardagi niyat pokligi, fidoyilik, himmatlilik, to'g'rilik, beg'arazlik, vazminlik kabi xislatlarning rivojlanishini kiritgan. Ayni paytda ular inson tabiatiga xos bo'lgan

ratsionalizatorlik, tashabbuskorlik, o'zgaruvchanlik va fikr mustaqilligi, omilkorlik zaruratini tan olgan[5, 25b.].

Bugungi kunda "kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari ta'limda yangilik emas, ular 20 yildan ortiq vaqt davomida o'rganilib kelinmoqda. Bundan tashqari, ushbu tushunchalar me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, ular ma'lum ma'no va qiymatga ega. Ta'lim sohasida "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari birinchi marta XX-asrning 60-yillarida Amerikada paydo bo'lib, kompetensiya (lot.: *competentia* – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) ma'lum sohaga oid bilim, malaka va ko'nikmalar, tajribani anglatadi.

1959-yilda amerikalik sotsiolog R. Uayt birinchilardan bo'lib "kompetentlik" atamasini kiritib, uni shaxsning atrof-muhit bilan samarali o'zaro ta'siri sifatida ifodaladi[6]. Shunday qilib R. Uayt, uni amalga oshirish uchun shaxs yuqori motivatsiyaga asoslanib, ishda sezilarli natijalar uchun zarur bo'lgan individuallik xususiyatlarini namoyon qilishini tasvirlab berdi. Shunday qilib, "kompetentlik" atamasi "tayyorlik", "mas'uliyat", "ishonch", "qat'iyatlilik" kabi yangi tarkibiy ta'riflar bilan to'ldiriladi[7]. Bu atamaning ijtimoiy ahamiyati muallif tomonidan aniqlangan kompetentsiya turlari orasida namoyon bo'ladi.

Sotsiologik ensiklopediyada "kompetensiya" tushunchasiga ikkita ta'rif berilgan: "1) kimgadir yaxshi ma'lum bo'lgan masalalar sohasi; 2) boshqa birovning xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan har qanday muassasa, shaxs yoki biznes masalalari to'plamining texnik topshiriqlari" [8, c. 461]. Xuddi shu o'rinda "kompetentlilik" tushunchasiga rahbar, jamoat arbobi, obro'-e'tiborining shaxsiy fazilatlarini majmui, jumladan, yuqori kasbiy mahorat, odamlarning manfaatlarini va ehtiyojlarini, u faoliyat ko'rsatayotgan vaziyatni, ijtimoiy munosabatlar tizimini, ijtimoiy institutlarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish, u yoki boshqa harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyati, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini bilishi sifatida tushuniladi.

Shuningdek, har qanday soha mutaxassisi faoliyatining eng muhim jihatlardan biri bo'lgan ma'naviy-axloqiy, kasbiy kompetensiya tamoyiliga ham rioya qilishi kerak. Bo'lajak sotsiologning kasbiy kompetentligi bir qator o'ziga xos tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular orasida samarali va foydali faoliyatni ta'minlashda ijtimoiy kompetentlilik alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, ma'lum sohada kompetentlik bo'lgan mutaxassis, sohaga oid masalalarda o'z harakatlarini samarali qo'llash bilan asosli mulohaza yuritishi uchun mos ravishdagi kompetensiyalarni ham egallagan bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda, professional kompetentlilik deganda, individual-psixologik struktura ham tushuniladi, u bilim, kasbiy tajriba va mutaxassisning ijtimoiy tayyorligini o'z ichiga oladi.

Yu.E.Rahimovning ta'kidlashicha, "Kasbiy kompetentlilik – bu integrativ tavsif bo'lib, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsga oid fazilatlarini ifodalaydi, ular bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi"[9, 36 b.]. Bitiruvchini tayyorlash modeli nafaqat bitiruvchining bilim, ko'nikma va malakalar tizimi bilan belgilanuvchi kasbiy kvalifikatsiyasini, shuningdek, zamonaviy xalqaro amaliyotda tayanch kompetensiyalar deb tavsiflanuvchi shaxsga oid sifatlar va tizimli shakllantirilgan universal mahorat va qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Bo'lajak sotsiologning yetuk mutaxassis sifatidagi ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi – shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir.

Aynan shuning uchun mutaxassislar tayyorlash ta'lim jarayonining asosiy vazifasi bo'lajak mutaxassisni kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining taniqli olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi pedagog va psixologlari (N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raev, R.X.Jo'raev, O.Musurmanova, U.Sh.Begimqulov, N.N.Azizxodjaeva, M.G.Davletshin, M.Ochilovlar) tadqiqotlarida turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqilgan. Jumladan, N.Azizxodjaeva bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanishini o'rgangan[10, 108 b.]. Tadqiqotchilar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raevlar pedagogning pedagogik kompetentligi hamda kreativligi asoslariga e'tibor qaratganlar[11, 6-9 b.]. Shuningdek, Z.K.Kurbaniyazovning tadqiqotlarida [12, 37 b]

aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga doir didaktik jarayonlar o'rganilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAM

Bo'lajak sotsiologning yetuk mutaxassis sifatidagi ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi – shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir.

Aynan shuning uchun mutaxassislar tayyorlash ta'lim jarayonining asosiy vazifasi bo'lajak mutaxassisni kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy kompetensiya to'g'risidagi qarashlarni tahlil qilish bizga shaxsiy va jamoat manfaatlarini, jamiyat bilan o'zaro munosabatlar jarayonida adekvat xulq-atvorni, ijtimoiy, siyosiy, kommunikativ bilimlarni, sotsializatsiya muvaffaqiyatini, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini, ijtimoiy qobiliyatlarni bilishni standart va nostandart vaziyatlarda konstruktiv xatti-harakatlar usullarini qo'llay bilishni nazarda tutadi. Ijtimoiy kompetensiya shaxsni ijtimoiylashtirishning yetakchi omili ekanligini tushunish muhimdir, bu har bir shaxsning ijtimoiy kompetensiyasini to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish zarurligini anglatadi. Bu esa bo'lajak sotsiologning zamonaviy jamiyatda yuqori talabni beradigan muhim shartlari hisoblanadi.

### XULOSA

Shunday qilib, bo'lajak sotsiolog uchun ijtimoiy kompetentlikning muhimligini ta'kidlagan holda, ushbu sifatning rivojlanishi uning o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga, mazkur o'zgarishlarga o'z vaqtida va ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiq javob berishga tayyorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga keldik. Bu esa bo'lajak sotsiologga dunyoqarashni kengaytirish, qadriyatli munosabatlar tizimi, mustaqil bilim olish uchun motivatsiya, o'z kasbiga qiziqishiga yaxlit bir nuqtayi nazarni shakllantirishga imkon beradi. Bunda sotsiologlarning kasbiy funksiyalarini shakllantirishda sifat o'zgarishlari sodir bo'lib, ular ijtimoiy-kasbiy faoliyat asosida yotadigan axloqiy qadriyatlarni amalga oshirish; fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash; ijtimoiylashuv jarayonida bolaga yaqindan yordam berish, ta'lim jarayonining barcha subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilganligi (mahalla, oila, maktab); individual va guruhviy farqlarni hurmat qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Qoidaga muvofiq, bunday mutaxassislar bolalarning, umuman fuqarolarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib, fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga intilishadi, shaxsiy va kasbiy odob-axloqning yuqori standartlarini o'z faoliyatida qo'llash orqali namoyon qiladi.

Demak, ijtimoiy kompetentlik – bu bo'lajak sotsiologning jamiyat, ijtimoiy-madaniy muhit, kishilarning kundalik turmush tarzi bilan tanishtirish, sotsial hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglashning zaruriy qismi bo'lib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga befarq bo'lmaslik, voqelikni to'laqonli idrok etish va jamoatchilik fikrini tahlil qilish orqali o'zgartira olish qobiliyatini ifoda etadi. U mutaxassisning ijtimoiy tajribasi, istiqbolda o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi, individualligi, kasbiy qoniqishi bilan belgilanib, bilim, dunyoqarash va faoliyatning mustahkam asoslarini o'zida mujassam etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, doimo tashqi olam bilan turli xil munosabatlar doirasida bo'ladi. Bu shaxsdan tegishli kompetensiyalarga (ya'ni, bilim, ko'nikma, qobiliyat, shuningdek, boshqa ijtimoiy subyektlar bilan munosabatda bo'lish qobiliyati) ega bo'lishini talab qiladi. Shunga ko'ra, atrofdagi dunyodagi munosabatlar soni muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir qilish uchun zarur bo'lgan vakolatlar sonini belgilaydi, ular shaxsning umumiy malaka darajasini tashkil qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.02.2019 yil PF-5667-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, 22.02.2019 No. PF-5667)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.04.2017 yil PF-5847-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, 20.04.2017 No. PF-5847)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.06.2018 yil PF-3775-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, 05.06.2018 No. PF-3775)

## PEDAGOGIKA

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 146 b. (Mirziyoyev Sh.M. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. - T.: Uzbekistan, 2017. - 146 p.)
5. Азимова З.Э. Ўқувчиларнинг шахслараро муносабатлари интеграл диагностикаси. Дисс... канд. пед. наук. – Тошкент, 2009. 20-25 б. (Azimova Z.E. Integral diagnosis of students' interpersonal relations. Diss... cand. ped. science - Tashkent, 2009. 20-25 p.)
6. White R.W. Motivation reconsidered: the concept of competence // Psychological Review. 1959. № 66. P. 297–333.
7. Dj.Raven Assessing Emotional Intelligence Competencies. Washigton, 2004. 168 p.
8. Социологическая энциклопедия: В 2 т. Т. 1 / Национальный общественно-научный фонд / Руководитель научного проекта Г.Ю. Семигин; Главный редактор: В.Н. Иванов – М.: Мысль, 2003. – 694 с. (Sociological Encyclopedia: In 2 vols. Vol. 1 / National Social Science Foundation / Head of the scientific project G.Yu. Semigin; Chief editor: V.N. Ivanov - M.: Thought, 2003. - 694 p.)
9. Рахимова Ю.Э. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинского колледжа: Дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2012. – С. 195. (Rakhimova Yu.E. Formirovanie professionalnoy kompetentnosti uchashchikhsya meditsinskogo college: Diss. ... candy. ped. science - Tashkent, 2012. - S. 195.)
10. Азизходжаева Н.Н. Формирование профессиональных компетенций будущих специалистов. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Вып. 12. Ч.1. СПб, 2014. – 108с. (Azizkhodjaeva N.N. Formation of professional competent specialists. Obrazovanie cherez vsyu zhizn: continuous obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya. Vyp. 12. Ch.1. SPb, 2014. – 108p.)
11. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. – 120 б. (Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., Toraev A.B. Fundamentals of pedagogical competence and creativity - Tashkent, 2015. - 120 p.)
12. Z.K. Kurbaniyazova, Ijtimoiy-pedagogik kompetentlik bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining muhim kompetenti sifatida//Nukus, Ilim ham jamiyet jurnali//2021. 1-son - 37 b. (Z.K. Kurbaniyazova, Socio-pedagogical competence as an important competence of professional training of future teachers//Nukus, Ilim ham jamiyet journal//2021. Issue 1 - 37 p.)